

OLAMNING LISONIY MANZARASINI YARATISHDA ONOMASTIK METAFORANING O'RNI

Muqimova Zohida Rasulovna,

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi,
filologiya fanlari doktori*

E-mail: zohidamuqimova69@gmail.com

ORSID: <https://orsid.org/0009-0006-6429-5022>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18666568>

Annotatsiya. *U yoki bu millatning milliy madaniyati uning til boyligida aks etadi, jumladan, metaforalarida yanada yaqqol ifodalanadi. Metafora olamni anglashning eng asosiy vositalaridan biri bo'lib, unda bilish, til, ong va madaniyatning o'zaro ta'siri namoyon bo'ladi. Metaforaning bir turi bo'lgan onomastik metaforalar ham muayyan tilning ifoda imkoniyatlarini namoyon etuvchi hodisa hisoblanadi. Onomastik birliklar ham badiiy matnda metaforik ma'noda qo'llanishi mumkin. Metaforaning bu tip birliklari bilan namoyon bo'lishi onomastik metaforalar deb yuritiladi. Mazkur maqolada onomastik metaforaning badiiy matndagi o'rni, lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *metafora, onomastik birlik, onomastik metafora, lingvomadaniyatshunoslik, lingvomadaniy birlik, pretsedent nom, antropoetonim, lingvopoetika, metaforizatsiya, assotsiativ maydon, milliy-madaniy tafakkur.*

Аннотация. *Национальная культура нации отражается в её языковом богатстве, включая метафоры. Метафора — одно из главных средств понимания мира, в котором проявляется взаимодействие знания, языка, сознания и культуры. Ономастические метафоры, являющиеся разновидностью метафоры, также представляют собой явление, демонстрирующее выразительные возможности конкретного языка. Ономастические единицы могут использоваться в литературном тексте и в метафорическом смысле. Проявление метафоры с помощью таких единиц называется ономастической метафорой. В данной статье рассматривается роль ономастической метафоры в литературном тексте, их лингвопоэтические и лингвокультурные характеристики.*

Ключевые слова: *метафора, ономастическая единица, ономастическая метафора, лингвокультурные исследования, лингвокультурное единство, прецедентное имя, антропоэтоним, лингвопоэтика, метафоризация, ассоциативное поле, национально-культурное мышление.*

Abstract. *The national culture of a nation is reflected in its linguistic richness, including its metaphors. Metaphor is one of the main means of understanding the world, in which the interaction of knowledge, language, consciousness and culture is manifested. Onomastic metaphors, which are a type of metaphor, are also a phenomenon that demonstrates the expressive capabilities of a particular language. Onomastic units can also be used in a metaphorical sense in a literary text. The manifestation of metaphor with these types of units is called onomastic metaphors. This article discusses the role and onomastic metaphor in a literary text, their linguopoetic and linguocultural characteristics.*

Keywords: *metaphor, onomastic unity, onomastic metaphor, linguocultural studies, linguocultural unity, precedent name, anthropoethonym, linguopoetics, metaphorization, associative field, national-cultural thinking.*

Kirish. *Metafora olamni anglashning kaliti, "Dunyoni bilishning eng qudratli qurollaridan biri" [4;120.] bo'lib, unda bilish, til, ong va madaniyatning o'zaro ta'siri namoyon bo'ladi. Metafora, shubhasiz, lingvomadaniy tadqiqotlar uchun qiziqish uyg'otadi. Badiiy asarda metaforadan foydalanish qahramonlar nutqini*

individuallashtiradi, unga muallifning o'ziga xos xususiyatlarini beradi. Yangi tasvir, yangi metafora madaniy makonni kengaytiradi, uning ichki sir-asrorini, ma'nosini ochib beradi.

Ma'lumki, metafora ko'chma ma'no hosil qilishning keng tarqalgan usullaridan biridir. Shuni unutmash kerakki, ko'chimlarning deyarli barchasining asosida o'xshatish, chog'ishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha yotadi. Mutaxassislar ta'kidlaganidek, "Metafora o'xshatishning qisqargan shakli" [7;222] dir.

So'nggi yillarda lingvomadaniyatshunoslik nisbatan yangi ilmiy fan sifatida shakllanish bosqichidan o'tdi. Bu ishlarda metafora, asosan, badiiy tasvir vositasi sifatida tadqiq qilindi. Mazkur tadqiqotlarning tavsifi bir qator tadqiqotlarda o'z aksini topgan [5;168]. Shu sababli biz bu haqida takroran fikr bildirishdan cheklanib, o'zbek tilshunosligida metafora xususida bildirilgan nazariy qarashlarga e'tibor qaratmoqchimiz.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek tilida metaforalarni o'rganishning tarixi, asosan, Sharq mumtoz adabiyoti va falsafa maktablari bilan uzviy bog'liqligi aniqlangan. Metaforalarni lingvomadaniy yondashuvda tekshirish o'zbek tilshunosligida ham o'zining jiddiy ilmiy-tadqiqiy rivojini topdi hamda bu borada tadqiqotlar soni ko'paydi. N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, Sh.Usmonova, N.To'xtaxodjaeva, D.Tosheva, D.Rustamov, G.Nasrullayeva, Sh.Maxmaraimovalarning tadqiqotlari shular jumlasidandir. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning tadqiqotlarida metafora lingvomadaniyatshunoslikning (lingvokulturologiya) birligi (obyekti) sifatida e'tirof etildi. Ayniqsa, bu borada N.Mahmudovning "Termin, obrazli so'z va metafora" maqolasini alohida e'tirof etish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada metafora hodisasi ikki ming yildan ortiq vaqtdan buyon dunyo filologiya ilmida tadqiq etib kelinayotganligi, antik davri faylasuflarining deyarli barchasi metaforaga, asosan, nutqning bezagi, nutqiy ko'chim, badiiylik vositasi sifatida talqin qilganliklari, XX asrga kelib esa metaforaga bo'lgan qarash o'zgarganligi, uning mavjudlik maydonlari ko'lami kengayganligi, metafora tom ma'noda fundamental bilish faoliyatining namoyon bo'lishi ekanligini aytiladi.

Tahlil va natijalar. Metaforaning dunyoni bilishning eng mahsuldor quroli bo'lish bilan birga bir qatorda tilda alohida so'zlar miqdorini oqilona ravishda mo'tadil saqlashga ham xizmat qilish xususiyati alohida ta'kidlanadi [3;117-126]. N.Mahmudov ta'kidlaganidek, "O'zbek tilining boy terminologiyasining shakllanishi va rivojidagi semantik jarayonlarda metaforalarning kognitiv faoliyati mexanizmlari, evristik va nominativ imkoniyatlari hamda lisoniy-kommunikativ xususiyatlarini tadqiq etish o'zbek antropotsentrik tilshunosligining jadal taraqqiyoti uchun ko'p narsa beradi" [3;117-126]. Haqiqatdan ham, antropotsentrik tilshunoslikning o'rganish obyektlaridan biri bo'lgan lingvomadaniy birlik sanaluvchi metafora til va fikr tuzilmalarini bir-biriga bog'laydi, ongni va madaniyatni ko'rinmas iplar bilan tutashtiradi.

Tilshunos olimi D.Xudoyberganova metaforalarni matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etish bilan birga, uni til egalarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni namoyon etuvchi hodisa sifatida baholaydi va o‘xshatish hamda metaforalar asosiga qurilgan matnlarning muayyan tilda qoliqlashgan matn shakllarini aniqlash imkoniyatini berishini aytadi. Olima ularni matnning pretsedent shakllari sifatida baholagan [8;18] hamda kognitiv metaforalarni so‘z, so‘z birikmasi, gap va mikromatn shaklidagi metaforalarga [10;36] tasniflagan holda o‘rganish fikrini ilgari surgan.

Ma'lumki, muayyan tilning bo'y-bastini, boyligini yaqqol ko'rsatib beruvchi manba uning izohli lug'atlaridir. Aytmoqchimizki, 2025-yilda professor D.Xudoyberganovaning o'zbek tilidagi metaforalarning izohli lug'ati, ya'ni "O'zbek tili metaforalarining antropotsentrik lug'ati" chop etildi. Mazkur lug'at "Tafakkurning ilk qadami (So'zboshi o'rnida)", "Lug'atning tuzilishi", "I. Odam haqidagi metaforalar", "II. Jamiyat va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq metaforalar", "III. Tabiat unsurlari va tabiiy hodisalar haqidagi metaforalar" kabi qismlardan iborat bo'lib, bunda o'zbek tilidagi metaforalar inson hayoti, jamiyat, tabiat va madaniyat bilan bog'liq konseptual modellar asosida tizimlashtirilgan. Ushbu lug'at o'zbek tili egalarining milliy-obrazli va assotsiativ tafakkuri, olamni idrok etish tarzi, voqelikka aksiologik munosabati hamda lisoniy yaratuvchanligi, metaforalarda qay tarzda in'ikos etishini chuqurroq o'rganish maqsadida tuzilgan. Bu maqsadni amalga oshirish uchun lug'atda metaforalarga kognitiv, assotsiativ, lingvomadaniy hamda pragmatistik aspektlarda yondashilgan [11;180]. Aytish o'rinliki, ushbu lug'at integrativ yondashuvda, ya'ni kognitiv, assotsiativ, lingvomadaniy hamda pragmatistik yondashuv asosida tuzilgan metaforalar lug'atining dastlabki namunasi hisoblanadi. Muallif ta'kidlaganidek, "olam unsurlari va hodisalarini aniq, tushunarli, muxtasar va ta'sirchan ifodalashning eng samarali usullaridan biri bo'lgan metaforalarni inson omili bilan uzviylikda o'rganish, mazkur lisoniy birliklarning antropotsentrik xususiyatlarini yanada chuqur tadqiq etish milliy tilshunosligimizning muhim masalalaridan biridir".

Ma'lumki, falsafiy nuqtayi nazardan umuman qiyos, xususan uning verballashgan ko'rinishlari bo'lmish o'xshatish va uning rivojlangan varianti [6;23], "Narsa-buyum, voqea va hodisalar, belgilar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishi" metafora [9;60-65] dir. Keyingi yillarda tilshunoslikda onomastik metaforaga bag'ishlangan tadqiqotlar yuzaga keldi. Ma'lumki, "metafora turlaridan biri bo'lgan onomastik metaforalar tilimizning ifoda imkoniyatlarini namoyon etuvchi hodisalardan biridir. Metaforik ma'no kasb etgan nom, xususan, badiiy matnda favqulodda ta'sirchan birlik sifatida namoyon bo'ladi" [9;60-65]. O'zbek tilshunosligida onomastik metaforalar D.Andaniyozova tomonidan muayyan darajada o'rganildi [1;54-61].

Ma'lum bir ijodkor asarlarida qo'llangan onomastik metaforalarning badiiy matndagi o'rnini aniqlash, belgilash, ularni tadqiq qilish onomastikaning, lingvopoetikaning, lingvomadaniyatshunoslikning rivoji va takomiliga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ko'plab asarlarda pretsedent nomlar shunchaki qo'llanmagan, ular orqali badiiy maqsad, ko'zlangan niyat yorqin ifodalangan.

Ma'lumki, pretsedent nomlarning badiiy matndagi vazifalaridan biri ularning onomastik metafora bo'lib kelishidir. "Onomastik birliklar ham badiiy matnda metaforik ma'noda qo'llanishi mumkin. Metaforaning bu tip birliklari bilan namoyon bo'lishi onomastik metafora deb yuritiladi va u muayyan onomastik birlikni nom bo'lmagan boshqa so'z ma'nosida qo'llashga asoslanadi, ya'ni tushuncha va nom (masalan, *saxovatli odam* ma'nosini *Hotam* antroponimi orqali ifodalash) o'rtasidagi o'xshashlikka tayanadi" [1;54]. "Metaforik ma'noda qo'llangan onomastik birlikning muayyan lingvomadaniyatda biror-bir belgining etaloni sifatida qabul qilinganligi namoyon bo'lsa, ikkinchi jihat bu birlikning o'sha lingvomadaniyat vakillari ongida hosil qiluvchi tushuncha va tasavvurlari bilan bog'lanadi. Ya'ni muayyan onomastik birlikning mashhurligi – pretsedentlik xususiyatiga ega bo'lishi uni metaforik ma'noda qo'llashning zaruriy shartlaridan biridir" [8;131]. Ma'lumki, "pretsedent nomlar qaysi lingvomadaniyatga mansubligiga ko'ra milliy va universal turlarga bo'linadi" [1;131]. *Gamlet* (umidbaxsh tuyg'ular ramzi), *Otello* (rashkchilik ramzi) kabi nomlar universal pretsedent nomlar bo'lib, ular dunyoning barcha xalqlari tomonidan bir xilda qabul qilinadi, tushuniladi. Shu bilan birga har bir xalqning o'ziga xos milliy pretsedent nomlari mavjud. Masalan, o'zbek lingvomadaniyatida *Alpomish* – nomus va oriyat, *Barchin* – sadoqatli yor; *Qorabotir* – razil raqib; *Go'ro'g'li* – qo'rqmas, botir, dovyurak yigit; *Layli* – vafodor yor, *Majnun* – telbalarcha oshiqlik ramzi sifatida qabul qilingan milliy pretsedent nomlardir. O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov asarlarida har ikki turdagi pretsedent nomlarni, ya'ni *Gamlet*, *Otello*, *Gitler* kabi universal, *Alpomish*, *Barchin*, *Go'ro'g'li*, *Qorabotir*, *Layli*, *Majnun*, *Otabek* kabi milliy pretsedent nomlarni kuzatdik.

Kuzatishlarimiz jarayonida aniq bo'ldiki, O'.Hoshimov asarlaridagi onomastik metaforalar lingvopoetik maqsadda ko'p qo'llagan. *Layli*, *Majnun*, *Otello*, *Qorabotir*, *Hotam*, *Toshpo'lat* kabi pretsedent nomlar shular jumlasidandir. Adib asarlaridagi onomastik metaforalar diniy va mifologik alomatlariga, muallifning tarjimayi holi, tarixiy voqealar, ijtimoiy va madaniy hodisalar, tabiat hodisalariga asoslangan.

Qorabotir [antropomorfik] – "Tohir va Zuhra" dostonining qahramonlaridan birining nomi. Bu mashhur xalq dostonida Qorabotir Tohirning raqibi sifatida tasvirlangan. Qorabotir – Tohir va Zuhra sevgilari o'rtasida "qora" bo'lgan qahramon. O'zbek lingvomadaniyatida bu nom sevishganlar yo'liga g'ov bo'luvchi qora niyatli shaxs sifatida qabul qilingan. Mazkur antroponim adibning "Qalbingga quloq sol" qissasida qo'llanilgan. *Qorabotir* nomi ikki leksema – *qora* va *botir*ning qo'shilishidan hosil bo'lgan. Ayonki, *Qorabotir* nomining bir komponenti bo'lgan *qora* so'zi "yomon, razil" ma'nosini ham anglatadi. Qissada, bir tomondan, *Qorabotir* antroponimi "so'zlovchi" nom vazifasida muayyan darajada rol o'ynagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, allyuziv nom sifatida qo'llanilib, "Tohir va Zuhra" dostonida tasvirlangan Qorabotirning Tohirga raqib

bo'lganiga ishora qilingan. Bunda mazkur antroponim intertekstual matn yaratishda vosita bo'lib, Qorabotir obrazi bilan bog'lik assotsiatsiyalarni hosil qilgan. *Qorabotir* onomastik metaforasi qissa qahramoni, Yodgorning raqibi Dilshodga nisbatan qo'llanilgan. – *Yodgor aka gapirsinlar! – Charos qo'lidagi bakal orqasidan unga mo'ralab qaradi. Yodgor Dilshodning unga zarda bilan qarab qo'yganini ko'rib, boyagi xudbinligi uchun o'zini koyidi. "Obbo, Qorabotir bo'lib qolding, shekilli. Birovning oilasiga rahna solishing qoluvdi"*.

O'tkir Hoshimov ijodida metaforik ma'noda qo'llangan asar nomlari (biblionimlar) hamda metafora asosida turli lingvopoetik maqsadlarda qo'llangan turdosh otlar ham ko'p kuzatildi.

“**Nur borki, soya bor**” – O'tkir Hoshimov romanining nomi. Ma'lumki, adib bu romanini turg'unlik davri avj nuqtalarga chiqqan bir davrda yaratgan. Turg'unlik davri illatlarini Sayfi Soqiyevich, Sirojiddin singari obrazlar orqali fosh etgan. Asarning bosh qahramoni Sherzod timsolida esa jamiyatdagi buzilgan muvozanatni tiklashga uringan, xalq dardi bilan yashaydigan, haqparastlikni o'ziga shior qilib olgan insonlar tasvirlangan. Nur o'zbeklar mentalitetida ijobiy hodisa ramzi. *Suv keldi – nur keldi, yuzidan nur yog'iladi* birliklarida ham bu o'z aksini topgan. Yozuvchi nurga – ezgulikka soyalarni – yovuzlikni qarshi qo'yadi. Roman nomidan ham aniqki, bu nurli dunyoda soyalar ham bor. Agar Sherzod va uning atrofidagi odamlar hayotga nur taratish harakatida bo'lsalar, Sayfi Soqiyevich va uning o'g'li Sirojiddinlar soya tashlash bilan ovora. Sirojiddinda mustaqillik yo'q; u otasining soyasi, xolos. *Nur* – Sherzod va uning do'stlari, *soya* esa Sayfi Soqiyevich hamda uning yaqinlari. *Nur borki, soya bor* bibliopoetoni asar g'oyasini ta'kidlab, inson hayotining murakkabligini metaforik tarzda ifodalashga xizmat qilgan. Romandan keltirilgan quyidagi matn buning isbotidir. *Tushundim, – dedi Sherzod beixtiyor ovozi pasaytirib. – Hammasini tushundim. – Siz nurli kunlarimizda soyalar qayoqdan paydo bo'lyapti dedingiz. – U Sherzodning qo'lini hamon kaftida ushlab turarkan, ohista qo'shib qo'ydi. – gap bundoq, o'g'lim, bunaqa soyalar har doim bo'lgan. Hozir ham bor. Endiyam bo'ladi. Ammo ular borgan sayin ko'zga xunuk ko'rinyaptimi, bilingki, nur ko'payib boryapti.*

“**Qalbning oppoq daftari**” biblionimi – O'tkir Hoshimovning publitsistik maqolasi sarlavhasi. Mazkur maqolada Sho'ro davri so'nggi bosqichida o'qituvchi haqida qayg'urish, uning maqomini ko'tarish e'tibordan chetda qolganligi, o'qituvchi mehnati, uning yaxshi yashashi uchun tegishli sharoitlar yaratilmaganligi bayon qilingan. Agar o'qituvchi shaxsiga e'tibor berilmasa, maorif tizimi, balki, umuman, jamiyatimiz bir joyda deysinib qolishi, ortga ketishi mumkinligi haqida jiddiy fikrlar o'rta tashlangan. *Qalbning oppoq daftari* xususiy (muallif) onomastik metaforasi *murg'ak bolaning oppoq qalb daftari* (*qalb* – bola, *oppoq daftar* – bolaning ma'naviy dunyosi) ma'nosini o'zida ifodalab, metaforani yuzaga keltirishda lingvopoetik vosita bo'lgan. Endigina maktabga qadam qo'ygan murg'ak bola qalbi *oppoq daftarga* o'xshatilgan. *Daftar* so'zining

aniqlovchisi *oppoq* soʻzi begʻuborlik, “qalb daftari”ga hali hech narsa yozilmaganlik maʼnolarini kuchaytirish, boʻrttirishga xizmat qilib, lingvopoetik vazifani bajargan. Endigina maktabga qadam qoʻygan murgʻak bolaning dunyoqarashini oppoq daftarga oʻxshatish oʻzbek xalqigagina xos desak, mubolagʻa boʻlmas: *Shubhasiz, har bir kasb oʻzicha sharafli. Har hunarning oʻz falsafasi bor. Pedagogik kasbining falsafasi hammadan koʻra murakkabroq. Murgʻak bolaning oppoq qalb daftariga insoniylik degan soʻzni yozish huquqi faqat oʻqituvchiga berilgan. Aytaylik, dehqon yerga nobop urugʻ sochsa, bir yil hosilsiz qoladi. Agar pedagog bolaning qalbiga nobop urugʻ sochsa-chi? Bu narsa bir umrlik fojiga olib kelmaydimi? Bu fojia bir kishining emas, koʻplarning fojiasiga aylanmaydimi? Hayotda hamma narsa bir-biri bilan bogʻliq-ku. Shu boisdan men bironta kasbni oʻqituvchilik hunari bilan tenglashtira olmayman.*

Adibning “Nur borki, soya bor”, “Qalbning oppoq daftari” xususiy (individual) onomastik metaforalari oʻzbekcha idrok, oʻzbekcha nigohning hosilasidir.

Toshpoʻlat [antropomorfik] – “Sirli yulduz” qissasi qahramoni ismi. Maʼlumki, oʻzbekcha nom qoʻyish odatiga koʻra, Toshpoʻlat ismi bolaning jismonan sogʻlom va chidamli boʻlishini niyat qilib qoʻyiladi. Toshpoʻlat – kechalari darddan ingrab chiqsa ham kunduzi yana dalaga otlanadigan, dardga chidamli talaba. *Tosh* hamda *poʻlat* leksemalari qoʻshilishidan hosil boʻlgan ushbu antroponim “tosh va poʻlatdek mustahkam” maʼnosini oʻzida jo qilib, shoʻro davrida dalalardagi ogʻir mehnatga tosh va poʻlat kabi chidam bilan sabr qilgan minglab toshpoʻlatlar obraziga ishora qilingan: **Toshpoʻlat** etagini orqalab, birinchi boʻlib keldi. Etak ogʻir edi. Ikki qoʻllab koʻtarib, tarozi ustiga qoʻydi. Shu payt yelkasiga ikki etak paxtani ortmoqlab, muallim ham kelib qoldi. (Qizlar tergan paxtani daladan oʻzi koʻtarib chiqardi.)

Bilishning universal vositasi sifatida onomastik metaforalar ham, shubhasiz, lingvomadaniy tadqiqotlar uchun qiziqish uygʻotadi. Bilamizki, “metafora madaniy mentallikni ifodalash vositasi hamda olamning konseptual manzarasining shakllaridan biri sifatida amal qiladi. Turli madaniyatlar turli metaforalarga ega boʻladi, degan xulosa bunday tahlilning eʼtirof etilgan natijasi boʻladi” [2;47-48].

Xulosa. Badiiy matnlarda qoʻllangan onomastik metaforalarni lingvomadaniy jihatdan oʻrganish ham madaniy maʼlumotlarni toʻplash va saqlashga imkon beradi. Biz badiiy asarning lingvopoetik va lingvomadaniy tahlilida onomastik metaforani ham eʼtiborga olish lozim deb hisoblaymiz. Onomastik metaforani olamning lisoniy manzarasida yangi maʼno yaratish usuli sifatida oʻrganish tilimiz lingvomadaniy xususiyatlarini kengroq yoritishga xizmat qiladi.

Xullas, metafora, uning bir turi boʻlgan onomastik metafora olamning lisoniy manzarasida yangi maʼno yaratish hamda dunyoni anglashning zaruriy vositasidir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Анданиязова Д. Ономастик бирликларнинг лингвопоэтик тадқиқи. –Тошкент:Турон замин зиё, 2016. – Б. 54-61.
2. Бахронова Д. Оламнинг лисоний манзарасида зооморф метафоранинг роли // Тил ва адабиёт таълими. –Тошкент, 2018. – №5. – Б. 47-48.
3. Маҳмудов Н. Термин, образли сўз ва метафора / Тил тилсими тадқиқи. –Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2017. – Б. 117-126.
4. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. –Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2017. –Б.120.
5. Махмараимова Ш. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти: Филол. фан. бўйича фалсафа (PhD) д-ри ...дисс. – Қарши, 2018. – 168 б.; Насруллаева Г. Антропоцентрик метафоранинг лингвомаданий, коммуникатив, прагматик аспекти: Филол. фан. бўйича фалсафа (PhD) д-ри ...дисс. – Қарши, 2018. – 147 б. Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини: Филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент, 2000.
6. Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини: Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2000. – 23 б.
7. Томашевский Б.В. Стилистика и стнхосложения. –М., 1952. – С. 222; Мейлах Б. Вопросы лигературы и эстетики. –Л., 1958. – С. 199; Расулов Т. Истиора // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1967. – №1. – Б.18; Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини:Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. –Тошкент, 2000. – Б. 5-6; www.ziyouz.com kutubxonasi.
8. Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри дисс. ... автореф. – Тошкент, 2015. – Б.18.
9. Худойберганова Д. Лингвостилистиканинг тадқиқ объекти хусусида / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. –Тошкент, 2018. – Б. 60-65.
10. Худойберганова Д. Матннинг мазмуний таркибида метафоралар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 1. – Б. 36.
11. Xudoyberganova D. O‘zbek tili metaforalarining antropotsentrik lug‘ati. – Toshkent: “Ilm-fan va innovatsiya”, 2025. – 180 b.
12. Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикиси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 206-211.